

Alimova Umida Jumaboy qizi
Urganch Ranch texnologiya Universtiteti
"Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi"
3-bosqich talabasi

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALAR RIVOJLANISHING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bolalar ruhiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini o'rganish, turli yosh davrlarda (chaqaloqlik, go'daklik, ilk bolalik) psixik rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, maktabgacha yosh davridagi xususiyatlari haqidagi bilimlarni egallash, maktabgacha ta'lim-tarbiya yosh davridagi bolalarning bilish jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari, maktabdagi ta'limga psixologik tayyorgarlik bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh davri, temperament, chaqaloqlik davri, individuallik, nutqiy rivojlanish, tafakkur, diqqatning rivojlanishi, analizatorlar faoliyati, yetakchi faoliyat, jismoniy rivojlanish.

PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CHILDREN IN THE PRESCHOOL AGE PERIOD

Аннотация. В данной статье представлены сведения об изучении основных закономерностей психического развития детей, получении знаний об особенностях психического развития в разные возрастные периоды (младенчество, младенчество, раннее детство), а также его особенностях в дошкольном возрасте, особенностях развития познавательных процессов детей в дошкольном образовании, этапах психологической подготовки к школьному обучению.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, темперамент, младенчество, индивидуальность, речевое развитие, мышление, развитие внимания, деятельность анализаторов, ведущая деятельность, физическое развитие.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Annotation. This article presents information on the study of the basic laws of children's mental development, the acquisition of knowledge about the characteristics of mental development at different ages (infancy, infancy, early childhood), as well as its characteristics in preschool age, the characteristics of the development of children's cognitive processes in preschool age, and the stages of psychological preparation for school education.

Keywords: Preschool age, temperament, infancy, individuality, speech development, thinking, development of attention, activity of analyzers, leading activity, physical development.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar, yosh xususiyatlar deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Bolaning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishdagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi, ham rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma - xil bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tgan. Bolani o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Rus pedagoglaridan P.F.Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishida maktabgacha yoshdagi davrning ahamiyatiga doir P.F.Lesgaftning bu fikri rus pedagogi A.S.Makarenkoning quyidagi fikriga to'la mos keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi. Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning

Bolaning individual - o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va holatiga va o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim. Temperament - lotincha "temperamentum" yoki qismlarning nisbati, shaxsning hissiy qo'zg'aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlar yig'indisi degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning: jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

Go'daklik (1 yoshgacha);

Ilk bolalik (1-3 yosh);

Kichik yosh (3-4 yosh);

O'rta yosh (4-5 yosh);

Katta yosh (5-6 yosh);

Maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh).

Ilk bolalik davri, bolaning 3 yoshdan boshlab, maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlar) tarkib topa boshlaydi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Bu yoshdagi bolalar o'z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo'ladilar. Maktabgacha yosh davrining birinchi yarmida bolalar predmetlar bilan harakat qilib, tanishib boradilar. Harakatlarning barcha koordinatsiyasi bolada barqaror diqqatning rivojlanishiga, idrokning aniq bo'lishiga va iroda kuchining o'sishiga olib keladi. Bu yosh davrida ko'rish va eshitish analizatorlarining rivojlanishi ayniqsa, yuksak darajaga yetadi. Bola asosiy ranglarni bir-biridan farq qiladi. Bu yoshdagi bolalar uchun idrok qilinayotgan predmet obrazlarining bir-biriga o'xshashib ketishi xarakterlidir. Bu davrdagi bolalarning xatti-harakatlarini ularning xohish va hissiyotlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Ilk davrda bolada o'z yaqinlariga: onasi, otasi, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Bola o'z yaqinlaridan maqto'v olishga harakat qiladi.[1].

Uch yoshgacha bolgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy yangi o'zgarishlar.

Yosh davrlari	Bilish jarayonlari	Harakat	Muloqoti
3 yosh	Nutqning shakllanishi. Ko'rgazmali harakat tafakkurning rivojlanishi. Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari. Atrof-muhitdan o'zini ajratishi; qat'iylikni atiglash.	Qo'l predmetli harakatlarning rivojlanganligi o'z xatti harakatlarini irodaviy boshqarishning ko'rinishlari.	O'z-o'zini anglashning yuzaga kelishi. Dastlabki axloqiy qoidalarni egallashi.

2 yosh	Faol nutqni tushunishi va o'zida yuzaga kelishi.	Oo'l va funksiyalarining aniq belgilanishi.	Xarakter asoslarining shakllanishi.
1 yosh	Nutqni tushunishning dastlabki belgilari.	Mustaqil holda tik turish va yurish.	Nutqni qo'llashning dastlabki belgilari.

Kichik yosh. Bola 3 yoshga qadam qo'ganida jismoniy osishi bir qadam shakllanadi. Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg, bo'yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib asab tizimi taraqqiy etadi. Bu yoshdagi bo'Udar o'z vaqtining ko'p qismini o'yin bilan o'tkaziladi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha o'yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi: predmetli-boshqaniv va ramziy o'yinlardan tortib to qoidali syujetli-rolli o'yinlargacha. Bu yosh davrida barcha o'yin turlarini ko'rish mumkin. Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi; predmetlar bilan boshqarish o'yini, konstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli o'yinlar, individual va guruhviy ijod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o'yirchoqlar bilan yolg'iz o'zlari o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, shuningdek o'z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar.

O'rta yosh. Bola 4 yoshga yetgach, uning jismoniy o'sishi bir muncha jadallashadi. Bu davr mobaynida bo'yi 105-108 sm gacha o'sadi, og'irligi esa 18-19 kg bo'ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarimsharlar po'stlog'ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanib boradi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran mustaqil fikrlash darajasi bir qadam rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o'yinqaroq, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni ovqatlantirish, o'z vaqtida uxlash, salomarligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmunini xuddi manashunga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Katta yosh. Bu davrda bolaning bo'yi 7-8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20-22 kg ni tashlik etadi. Bolaning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Olti yoshiga yetkanida miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi qo'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatda nuqson bo'gan taqdirda uning oldini olish choralarini ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolaning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Bu davrdagi bolaning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalari rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy ko'nikmalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyati jadal rivojlanishga alohida e'tibor qararish maqsadga muvofiq.

Maktabga tayyorlov davri. Katta maktabgacha yosh davrida konstruktorlik o'yini mehnat faoliyatiga aylana boshlaydi, o'yin jarayonida bola turmushda zarur bo'lgan nimanidir yasaydi, yaratadi, quradi. Bolalar bunday o'yinlarda oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ularda amaliy tafakkur faol rivojlanadi. Bola o'yinda ko'plab uy-ro'zg'or asboblari va predmetlaridan foydalanishni o'rganadi. Unda o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish qobiliyati paydo bo'ladi va rivojlanadi, ko'p harakatlari va aqliy operatsiyalari, tasavvur va xayoli takomillashadi. Rolli o'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyatidir. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odatlarning barcha vazifalarini va ishlarini amalda bevosita bajariladilar. Shu boisdan o'yin faoliyat uchun maxsus yaratiladigan. Sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealıkları, oilaviy turmush hodisalari, shaharlarda munosabatlarni umunlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg'u, o'zaro muomala va muloqatlarining

xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof-muhitga munosabatlarini yaqqol voqealik tarzida ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rol o'yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, mohiyati va mazmun jihatidan oddiylardan muraakkabga qarab takomillashib boradi [2].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida rivojlanishining yoshiga bogliq xususiyatlar juda ko'p va ahamiyatli. Bolaning rivojlanishida qanday rivojlanayotkanligi yoshiga yarasha vazni, bo'yi, psixologik xarakteri, qobiliyati, tashqaridagi malumotlari qay darajada qabul qilishi, nutqining o'sishi, so'z boyligi bularning hammasi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilganidan to maktabgacha ta'lim yoshiga yetkuniga qadar har tomonlama me'yor jihatidan rivojlanishi kuzatuv ostida bo'lishi lozim. Chunki, har tomonlama sog'lom bola davlatimiz kelajaki demaktir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.T.Nishanova, g.k.alimova, a.g'.turg'unboeva m.x.asranboeva bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi
2. M.Voshidov. «Bolalar psixologiyasi». Toshkent. 1982
3. G'oziyev E.G'. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O'qituvchi, 1994.